

**Ўзбекистон Республикаси
Соғлиқни сақлаш Вазирлиги
Тошкент Фармацевтика институти**

Р Е Ф Е Р А Т

Бажарди:1/1 гуруҳ талабаси Абдусаматова А

Текширди:Нуралиева Х

Тошкент 2014 йил

MAVZU : EKOLOGIK MUAMMOLAR

REJA 1 :

KIRISH

- 1. Ekologik muammolarning tarkib topishi.***
- 2. Global ekologik muammolar va ularning oqibatlari.***
- 3 . Mintaqaviy va mahalliy ekologik muammolar.***
- 4. Chiqindi turlari va ularni sinflarga bo`linishi.***
Kimyoviy ifloslanish turlari va darajalari

O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalar qatori ta'lim sohasiga ham yuqori darajada davlat e'tibori qaratildi ekologik halokatlarning kelib chiqishi, mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotiga ta'sirini o'rgatish bilan birga ularda ekologik madaniyat, ekologik tarbiya va ekologik ong tushunchalarini chuqur singdirishni maqsad qilib qo'ygan.

Ma'lumki, Toshkent va Navoiy mamlakatimizdagi yirik sanoatlashgan shaharlar hisoblaniladi. Navoiydagi tog'-kon, mineral o'g'itlar va sement mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari O'zbekistonda yetakchi o'rinni egallaydi. ekologik muammolar va ularni hal etish bo'yicha olib borilgan ekologik tadbirlar aynan shu korxonalar asosida, aniq dadillar bilan yoritilgan.

Inson tabiat bilan o'zaro aloqada bo'lib, uning hayotini tabiatdan alohida tasavvur qilish mumkin emas. Shu ma'noda Prezidentimiz I.A.Karimovning "Ona zaminimiz – boyligimizning,


mustaqilligimizning va go'zal kelajakka ishonchimizning asosiy manbaidir" – degan so'zlarida juda katta ilmiy-falsafiy mazmun bor. Insoniyat yashayotgan zaminning o'z qonuniyati mavjud. Zaminda bitmaydigan, tugamaydigan ne'matning o'zi yo'q. Biz esa bundan ogoh bo'lishimiz zarur. Inson va jamiyat tabiatning ajralmas qismi.


Tabiiy resurslar, ya'ni yoqilg'i, ma'danlar, metallar, nafas olinadigan havo, ichiladigan suv, is'temol qilinadigan go'sht, sut, don sarxil mevalar, daryo va ko'llardagi baliqlar, har xil shifobaxsh giyohlar, turli-tuman xom ashyolar bo'lmasa bir daqiqa ham yashay olmasligimizni juda yaxshi bilamiz. Tabiiy boyliklar Ollohning odamzotga in'om etgan buyuk ne'matlaridir. Olloh taoloning barcha nozu-ne'matlari, tabiiy boyliklardan bahramand bo'lishning o'zi bir necha ming yillik tarixga ega. Bu tarix Yer yuzida insoniyat paydo bo'la boshlagan kezlardan boshlangan. Insoniyatning tabiat bilan bo'lgan aloqasi vaqtincha emas, balki doimiy va zaruriydir. Odamzot Koinotning gultoji sifatida ilk paydo bo'lgan davrdan, to hozirga qadar tabiatga ta'sir qilib, unga ta'sirni o'tkazib, bu ta'sirni bora-bora kuchaytirib, oqibatda tabiatni batamom o'zgartirib yubordi. Keyingi ming yilliklar davomida insonning tabiatga faol aralashishi natijasida Yer shari yuzasi iqlimi, o'simligi, hayvonot dunyosining tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketganligi bunga yaqqol misol bo'ladi. "Dunyo tarixida ilk dafa inson faoliyati hayotning eng zarur sarchashmalarining buzilishi va yemirilishiga sabab bo'lmoqda.

Insoniyatning o'z kelajagi, ertangi kuni, istiqbolini o'ylamay qilgan o'zboshimchaliklari, ko'r-ko'rona qilmishlari tufayli tabiat behat ozor chekdi, ko'p a'mollardan abadiy judo bo'ldi. Har xil kosmik changlar, ilmiy texnikaviy taraqqiyot, ayniqsa, avtomobillar sonining tez darajada o'sib borishi, radioaktiv moddalar va boshqalar ta'siri ostida barcha jonli mavjudotning hayot manbai bo'lgan atmosfera havosi maksimal darajada ifloslanmoqda. Bunday dahshatli hodisalar dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida tez-tez sodir bo'lib turadi. Atrof-muhitning radioaktiv va kimyoviy chiqindilar bilan bulg'anishi, aholining, chorva mollarning, parrandalarning, daryo hamda ko'llardagi, suv omborlari va okeanlardagi baliq va boshqa jonivorlarning ko'plab zaharlanishiga, Yevropa mamlakatlarida ko'plab ro'y berib turgan sigir, buzoq, qo'y, cho'chqalarning oqsil kasalliklariga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat sanitariya epidimologiya nazorati bergan ma'lumotga ko'ra hozirda Respublikamiz sanoati va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida **3 milliondan ortiq kishi** band bo'lib, shuning qariyb **1 millionga yaqini** zararli sharoitlarda (chang, shovqin, titrash, ultra-va infratovushlar ta'sirida) mehnat qilmoqda. Zararli mehnat sharoitlari hisobiga kasb-patologiya kasalliklar ko'payishi kuzatilmoqda. Jumladan Respublikada so'nggi besh yil davomida bu kasallik (har 10000 ishchiga nisbatan) **1,2** dan to **1,76** gacha ko'paygan, Navoiy tog'-metallurgiya kombinatida bu ko'rsatgich **1,62** dan to **3,2** gacha oshgan.


"Kimyoviy ekologiya" insoniyat tomonidan yo'l qo'yilgan xatoliklar oqibatida vujudga kelgan ekologik fojealarni o'rganadi va tahlil qiladi, oldini olish uchun chora-tadbirlar izlaydi. Tabiiy va tarixiy merosimizni saqlab qolish Ekologik muammo deganda, butun insoniyatga xavf soladigan, ilmiy asoslangan muammolarni tushunish maqsadga muvofiq.





1.2. Eng muhim ekologik muammolar, ularni hal etishning dolzarbligi

Respublikamizdagi eng muhim ekologik muammolarni va ularni oldini olish chora-tadbirlarini Sayyoramiz kelajagi, insoniyatning taqdiri hozirgi davrda ko'p jihatdan ekologik muammolar yechimiga bog'liq bo'lib qoldi. Ekologik muammo keyingi o'n yilliklar davomida yana keskinlashib ketdi. Havoning ifloslanishi, ichimlik suvning o'ta taqchilligi, ona zaminning zaharlanishi, ekish va hosil olish mumkin bo'lgan unumdor yerlarning, yer osti va yer usti boyliklarining, o'simliklarning va hayvonlar nodir turlarining kamayib borayotganligi hamda atmosfera haroratining sezilarli darajada oshib borayotganligidan insoniyat behad azob chekmoqda. XX asr tugab XXI asrning dastlabki kunlarida, asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch keldi. Hozir sayyoramizda quyidagi global ekologik muammolar o'z yechimini kutmoqda:



Ekologik muammoni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mosdir. Sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ekologik muammoning hal qilinishiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi dunyodagi barcha mamlakatlar, jumladan Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar bilan hamkorlik va hamjihatlikda tabiatni, atrof muhitni himoya qilish, tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish masalalariga katta e'tibor va ahamiyat berib kelinmoqda. Buning natijasi o'laroq, atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan qonun hujjatlari Respublikamizda ko'plab qabul qilingi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida belgilab qo'yilganidek ***“Fuqarolar atrof, tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlar”***.

Insoniyatning kelajakdagi taqdiri hozirgi davrda mavjud ekologik muammolarni qanday hal qilishga, ekologik muammolardan aholini, tabiatni qanday muhofaza qilishga bog'liq bo'lib qoldi. Bunday deyilishida juda katta ma'no, tarixiy zaruriyat, ob'yektiv ehtiyoj bor. Chunki ekologik muammo zahirada alohida xalqlar millatlar va mintaqalarnigina emas balki butun insoniyatning kelajak taqdiri yotibdi.

Uzoq yillar davomida eski ma'muriy buyruqbozlik tizimi sharoitida Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekologik muammolarga e'tibor berilmadi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga arziyas darajada kam mablag' ajratilardi. Bu mablag' tabiatga yetkazilgan zararni also qoplamasdi. Sobiq ittifoq zamonida atrof-muhit va atmosfera havosining ifloslanishi, toza ichimlik suvi yetishmasligi tashvishli hol ekani haqida bilib, bilmaslikga olindi. Qonunlar rasmiyat uchun qabul qilinadiyu, ammo ular hayotga joriy etilmadi. Sho'ro tuzumi davrida inson tabiatni o'z irodasiga bo'ysundirishi lozim degan soxta aqida uzoq yillar ustuvorlik qildi. Natijada barcha hududlarda ekologik muvozanat qo'pol ravishda buzildi. Mintaqamizda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ham tashvishlanarli ekologik vaziyatlar yuzaga keldi.

O'zbekiston Respublikasiga sobiq ittifoqdan, eski mustabid tuzumdan aytib o'tganimizdek paxta yakka hokimligi va boy mineral xom ashyo resurslaridan nazoratsiz, ayovsiz foydalanish asosiga qurilgan iqtisodiyot og'ir meros bo'lib qoldi. Respublikamizga xom ashyo yetishtirib beradigan chekka o'lka sifatida qaraldi. Mamlakatimizdan katta miqdorda yetishtirilgan paxta hosilining aksariyat hajmi tekinga tashib ketilar edi. Oltin, qimmatbaho va rangli metallar, strategik ahamiyatga ega materiallar jahon bozorining o'ta xaridorgir bo'lgan boshqa qimmatbaho mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishdan keladigan foyda O'zbekiston xazinasiga tushmas edi.

Hududimizda yuz bera boshlagan ekologik inqiroz nihoyatda keskinlashib ketib, ijtimoiy tus ola boshladi. Ekologik tanazzuldan esa keng jamoatchilik tashvishga tushishi tabiiy hol, albatta. Odamlar qanday xavf qarshisida turganliklarini, atrof-muhitga yetkazilayotgan zarar qanday ko'rgiliklarga olib kelganligini yaqqol his etdilar. Tabiatga qo'pol va takabburlik bilan munosabatda bo'lish odamlarning qirilib, genofondning yo'q bo'lib ketishiga muqarrar ravishda olib kelishini tushunib yetgan kishilar, olimlar, shoir va yozuvchilar, mutaxassislar, deputatlar bong ura boshladilar. Dunyoning hamma mamlakatlarida, boshqa mintaqalarda sodir bo'lganidek Markaziy Osiyoda, O'zbekistonda ham ekologik muammolar dolzarb bo'lib qoldi. O'zbekistonda eng xavfli ekologik muammolar toza havo, ichimlik suv, tuproq tarkibining buzilishi va Orol dengizi muammolari hisoblanadi, mazkur “Ekologik muammolar” fanini o'rganish davomida bu muammolarning har birini ilmiy asoslangan holda qarab, tahlil qilib, oldini olish chora-tadbirlarini belgilaydi. Hammamiz havoning ifloslanishi, suvning ifloslanishi, shaharlarning qayta cho'llanishini, bog'larning qurib qolishi va shunga o'xshash muammolarni birgalikda oldini olishimiz, bartaraf etishimiz kerak, yo'qsa shoir bashorat qilganidek tog'u-bog'lar biz va bizning kelajak avlodlarimiz uchun bir butun shirin xayol bo'lib qolishi, armonga aylanishi mumkin:

Tayanch so'zlar: Biosfera, atmosferaning dimiqishi, ozon tuynugi, tuproq Eroziyasi, global, regional, lokal, pestisid.

Hozirgi vaqtda inson faoliyati ta'sirida biosferaning cfzgarishi juda tezlik bilan borayapti. Inson Yer kurrasining qiyofasini o'zgartirishda katta geologik kuch sifatida vujudga kelganini V.I.Vernadskiy tomonidan takidlab o'tilgan edi. Insonning tabiiy jarayonlardan noto'g'ri foydalanishi natijasida XX asrning o'rtalarida ekologik muammolar juda avj olib ketdi. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq xolda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni uning iqtisodiyotida, hayotda xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy xodisalar bilan bog'liq bo'lgan har qanday xodisa tushuniladi. (iqlim o'zgarishi, hayvonlarning yalpi ko'chib ketishi) tabiatdagi muvozanatning buzilishi oqibatida turli miqyosdagi ekologik muammolar shakllanmokda. Ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

1. **Global (umumbashariy).**
2. **Regional (mintaqaviy).**
3. **Lokal (mahalliy).**

Global ekologik muammolar dunyo bo'yicha kuzatiladigan tabiiy, tabiiy antropogen va sof antropogen ta'sirlar natijasida yuzaga kelib umumbashariyatga tegishlidir. Ana shunday ekologik muammolarning ba'zilar bilan tanishamiz:

Atmosferaning dimiqish xodisasi. Keyingi yillarda atmosfera tarkibidagi SO₂ miqdori ortib borayotganligi ma'lum bo'lib qoldi.

Natijada Yer yuzasining harorati oxirgi 100 yil ichida 0,5-1,0 gradus ortdi. Iqlimning keng ko'lamda o'zgarishi atmosferaning sanoat chiqindilari va avtotransportlardan chiqayotgan gazlar bilan bog'liq. Yer yuzasining global isishi, ya'ni atmosferaning dimiqishi SO₂ ning havo tarkibida ortib ketishi, o'rmonlarning kesilishi, toshko'mir va benzin kabi yoqilg'ilarning yonishidan atmosferada to'planadigan SO₂ gazi tufaylidir. Ana shu zaylda ahvol o'zgarmasa XXI asrning o'rtalarida yer yuzasining harorati 1,5-4,5 gradusgacha ortishi mumkin. **Natijada:**

1. Iqlimning o'zgarishi ayniqsa, cho'llanish jarayonining kuchayishi. Yogingarchilikning o'zgarishi. Dengiz va okeanlar satxining ortishi Muzliklarning Yerishi va kamayishi hamda boshqa hodisalar kuzatiladi.

Ozon qatlamining siyraklanishi:

Ozonosfera atmosferaning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, u iqlimga va yer yuzasidagi barcha tirik organizmlarni nurlanishdan saqlab turadi. Atmosferadagi azonning eng muhim xususiyati uning doimo hosil bo'lib va parchalanib turishidir. Ozon quyosh nurlari ta'sirida kislorod, azot oksidi va boshqa gazlar ishtirokida hosil bo'ladi. Ozon kuchli ultrabinafsha nurlarni yutib qolib yer yuzidagi tirik organizmlarni himoya qiladi. Ultrabinafsha nurlar miqdorining ortishi tirik organizmlarga salbiy ta'sir qiladi. Hozirgi davrda freonlardan keng foydalanish tufayli hamda aviatsiya gazlari, atom bombalarini portlatishlar atmosferada etarli miqdorda ozon to'planishiga imkon bermayapti.

Chuchuk suv muammosi:

Quruqlikda chuchuk suv va uning biosferadagi roli nihoyatda katta. Gidrosferada chuchuk suv miqdori juda oz (2-2,5 %). Jamiyatning rivojlanishi bilan aholining chuchuk suvga bo'lgan talabi ortib bormoqda. Bizning asrimizda chuchuk suvdan foydalanish 7 marta ortgan. Yiliga 3-3,5 ming km³ suv sarflanadi. Qurg'oqchil zonalarda daryolar suvidan to'liq foydalanilgan xolda ularning suvi etmay qolmoqda.

1980 yil boshlarida bundav holat Afrika, Avstraliya, Italiya, Ispaniya, Meksika, Nil, Amudaryo, Sirdaryo va ba'zi bir boshqa daryolarda kuzatila boshlandi. Daryolarning sanoat va maishiy zaxarli moddalar bilan ifloslanishi o'sib bormoqda. Sanoat yiliga 160 km³ sanoat va oqova suvlarini daryolarga tashlaydi. Bu ko'rsatgich daryolarning umumiy suv miqdorining 10% ini tashkil etadi. Daryolardagi toza suvlarda yildan yilga har xil Yerigan moddalar, zaxarli kimyoviy moddalar va bakteriyalarning miqdori ortib bormoqda. Pestitsidlardan foydalanish muammosi. Ular tuproq va suvlardan o'simliklarga undan hayvonlar va odam organizmiga o'tadi. Pestitsidlar har bir bo'g'inda zararli va ziyon keltiradi. Pestitsidlarning zaharli ta'sirini oldini olish uchun quyidagi chora tadbirlarga amal qilish lozim.

1. **Hayvon va odamlarga ta'sirini susaytirish.**
2. **Tuproq va suvlarda to'planishining oldini olish.**
3. **Tez parchalanuvchi va beqaror pestitsidlarni sintez qilish.**
4. **Pestitsidlardan foydalanishni iloji boricha cheklash.**
5. **O'simliklarni biologik himoya qilish.**

6. Tirik tabiatdagi o'simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi muammosi.

O'simliklar dunyosi, ayniqsa yer yuzidagi hayotni ta'minlashda o'rmonlarning ahamiyati juda katta. Aholi sonining ortishi xo'jalik faoliyatining kengayishi tufayli tabiatning inson qo'li tegmagan oyi qolmayapti. O'simliklar va hayvon turlarini davlat muhofazasiga olish qonunlar orqali ovchilikni to'g'ri yo'lga qo'yish, shuningdek ko'rikxonalar, zakazniklar, milliy bog'lar, botanika bog'lari va qizil kitoblar o'simliklar va hayvonlar turlarini saqlashda katta rol o'ynaydi. Cho'llanish jarayoni:

Yer kurrasi quruqligining 40 mln km.kv maydoni qurg'oqchilik mintaqasi bo'lib, dunyo aholisining 15% dan ortig'i ushbu hududga mujassamlashgan qishloq xo'jaligining tezkor rivojlanishi, sug'oriladigan yerlar va yaylovlardan noto'g'ri foydalanish oqibatida, o'rmonlarning betartib kesilishi natijasida cho'llanish darajasi yil sayin ortmoqda. Inson ta'sirida vujudga kelgan cho'llar 9,1 mln. km. kv.ga etdi. Yer yuzasining ayrim mintaqalariga xos tabiiy-iqlim, ijtimoiy-ekologik, tabiat bilan inson o'rtasidagi o'zaro aloqalari natijasida yuzaga keladigan ekologik muammolar regional ekologik muammolar deb ataladi. Mintaqaviy ekologik muammolarga baho berishning mezoni havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, yaylovlarning ishdan chiqishi, o'rmonlarda daraxtlarning kesilishi, belgilangan miqdordan oshib ketishi va boshqalar hisoblanadi. Markaziy Osiyodagi mintaqaviy ekologik muammolardan eng muhimi Orol va Orol bo'yi ekologik muammosidir. Orol dengizi yaqin vaqtlargacha eng yirik dengizlardan biri hisoblangan. U muhim baliqchilik, ovchilik, transport va rekreatsion ahamiatga ega edi. Sug'oriladigan dehqonchilikning rivojlanishi natijasida Amudaryo va Sirdaryoning suv quyishi 1970 yilga kelib 37,8 km³, 1980 yilda esa 11,1 km³ gacha kamayib ketdi. Suvning sho'rlanish darajasi litriga 9-10 g dan 34-37 g/litr gacha ortdi. Hozirgi kunda dengiz satxining yillik o'rtacha pasayishi 80-110 sm (oldin 53 sm bo'lgan 33 metr ga tushsa orol 2 ga bo'linib qoladi, hech bo'lmaganda 33,5 metr balandlikda saqlab qolish kerak). Orolning qurigan tubi yirik chang to'zon makoniga aylandi. Aholi ichadigan suv pestitsidlar bilan ifloslangan, keyingi 10 yil ichida o'lim 2 marta ortgan. Bolalar o'limi har tug'ilayotgan!000ta chaqaloqdan 45-90 taga to'g'ri keladi. Ayollarning 80%ida kamqonlik xastaligi uchraydi. Bolalarning 90%ida siydigida tuzlar miqdori ortib ketgan. Orol muammosining hal qilinishining tub mohiyati suv resurslaridan oqilona foydalanishni amalga oshirishga bog'liq. Orolni saqlab qolish uchun Markaziy Osiyo Respublikalari bilan birgalikda qisqa vaqt ichida yiliga 20-21 kub km suv Orolga quyiladigan miqdorda yagona suv xo'jalik siyosatini ishlab chiqish bunda Orolbo'yidagi barcha tabiiy ko'llarni saqlab qolish e'tiborga olinishi lozim. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi respublikada ijtimoiy ekologik holatiga muayyan darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Respublikamizda tabiatni muhofaza qilishga oid muammolar quyidagilar. 1.Yirik xududiy sanoat majmualari joylashgan rayonlarda tabiatni muhofaza qilish muammolari. (Angren, Olmalik, Chirchiq, Farg'ona, Marg'ilon, Navoiy va hakoza.) 2.Orol va Orolbo'yi muammolari, suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan maqbul tarzda foydalanish. S.Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari pestitsidlari va mineral ug'itlar bilan ifloslanishi. 4.O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari, va milliy bog'lar tarmog'ini kengaytirish. Mavzuni mustahkamlash uchun savollar. 1 .Ekologik muammo deganda nimani tushunasiz? 2.Atmosferaning dimiqish hodisasini tushuntiring? 3.Ozon qatlamining siyraklashish muammosini tushuntiring? 4.Pestitsidlardan foydalanish qanday ekologik muammolarni keltirib chiqaradi? S.Orol va orolbo'yi ekologik muammolarning yuzaga kelish sabablarini tushuntiring? birgalikda qisqa vaqt ichida yiliga 20-21 kub km suv Orolga quyiladigan miqdorda yagona suv xo'jalik siyosatini ishlab chiqish bunda Orolbo'yidagi barcha tabiiy ko'llarni saqlab qolish e'tiborga olinishi lozim. Mahalliy ekologik muammolar. (lokal.) Mahalliy ekologik muammolar turli korxonalar faoliyati, yerlarni sug'orish, yaylovlardan noto'g'ri foydalanish natijasida vujudga kelsada malum hududlar uchun xosdir Respublikamizda tabiatni muhofaza qilishga oid muammolar quyidagilar. 1.Yirik xududiy sanoat majmualari joylashgan rayonlarda tabiatni muhofaza

qilish muammolari. (Angren, Olmaliq, Chirchiq, Farg'ona, Marg'ilon, Navoiy va hakozi.) 2.Orol va Orolbo'yi muammolari, suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan maqbul tarzda foydalanish. S.Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari pestitsidlari va mineral ug'itlar bilan ifloslanishi. 4.O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari, va milliy bog'lar tarmog'ini kengaytirish.

Chiqindi turlari va ularni sinflarga bo'linishi.

Kimyoviy ifloslanish turlari va darajalari

Tuproqlarning kimyoviy ifloslanishi turli omillar ta'sirida paydo bo'lib, yillar davomida tuproq qoplami zararlanishi kuzatiladi. Tuproqlar ifloslanishi turlicha bo'lib, asosan sanoat korxonalari, maishiy va boshqa chiqindilar hamda turli jarayonlar mobaynida ifloslanadi (3-rasm).Har bir davlatda tabiiy resurslar hisoblanuvchi yer resurslarini muhofaza qiluvchi tashkilotlar bo'lib, mazkur tashkilotlar tomonidan doimiy tarzda tuproqlarni kimyoviy ifloslanish holati nazorat kilinadi va shu asosda tegishli tadbirlar belgilanadi.

Uzbekiston Respublikasida yer resurslarining holati, ularni muhofazasi va tegishli masalalar bilan Tabiatni muhofaza kilish Qo'mitasi, Gidrometrologiya xizmati va bir qator ilmiy - tadqiqot institutlari shug'ullanadi. Bularda laboratoriya sharoitida ifloslovchi modda tarkibi, miqdori va boshqa xossalari o'rganilib, ifloslanishga tavsif beriladi.

3-rasm

Tuproqlarni kimyoviy ifloslanish jarayonlarini aks ettiruvchi ayrim lavhalar

Kimyoviy ifloslangan tuproqlarning havfli - zaharli xususiyati, kimyoviy tarkibi va umumiy miqsori bo'yicha turlarga ajratiladi.

Havfli-zaharli xususiyati bo'yicha tuproqlar quyidagi kimyoviy ifloslanishlarga ajratiladi:

1.Radioaktiv ifloslanish,

2. Og'ir megallar va kimyoviy moddalar bilan ifloslanish,

3. Turli chiqindilar bilan ifloslanish.

Tahlillarga ko'ra radioaktiv ifloslanish eng havfli o'rinda turadi, chunki radioaktiv ifloslanishda dastlab biologik dunyo jiddiy zarar ko'radi va juda katta radiusda ham ta'sir etish xususiyatiga ega, eng achinarlisi inson sog'ligiga juda havfli ta'sir etib, uning kelajak avlodlariga genlar orqali ta'sir etishi bilan boshqa ifloslanish turlaridan farq qiladi.

Og'ir megallar bilan ifloslanishning havfli tomoni shundaki, birinchidan, og'ir megallar bilan ifloslanishni vujudga keltiruvchi omillar va manbalar ko'p (transportlar va sanoat - korxonalari) bo'lib, ikkinchidan, tuproq qoplamida saqlanish (yemirilish) muddati bir necha ming yillarga teng.

Tuproqlarni turli chiqindilar bilan ifloslanishi yuqoridagi ifloslanishlar katori juda ko'p hisoblanadi. Uning havfli tomoni shundaki, turli chiqindilar inson ta'siri va sanoat korxonalari tomonidan juda katta miqdorda tuproq qoplamiga to'planadi. Maxsus chiqindilar ko'miladigan "qabriston" lar yillar davomida atrof - muhit tuproq qoplamiga salbiy ta'sir qiladi. Chiqindilar zaharli xususiyati bo'yicha quyidagi guruhlariga ajratiladi (3-jadval). Chiqindilar asosan kimyoviy tarkibiga va ta'sir etish xususiyatig ko'ra bir - biridan farq qiladi. Tuproq qoplamiga ko'proq to'g'ridan - to'g'ri ishlab chiqarish sanoati va maishiy chiqindilar tushadi. Qayta ishlash sanoati va boshqa turdagi chiqindilar nisbatan kamroq. Tuproq qoplamini kimyoviy ifloslanishida turli omillar yetakchi o'rin egallaydi. Ifloslangan tuproqlar quyidagi kategoriyalarga bo'linadi (4-jadval).

2-jadval

1-jadval Chikindi turlari va ularning sinflarga bo'lnishi

<i>Nö</i>	<i>Chiksndi turlari</i>	<i>O'lchov birliklari</i>
1.	Zaharsiz chiqindilar:	Turlicha

2.	Ishlab chikarish sanoat chiqindilari	Tonna
3.	Qayta ishlash sanoati chiqindilari	kub/metr
4.	Maishiy chiqindilar	to1sha
5	Zaxarli chiqindilar: 1 -sinf-o'ta qavfli zaharli chiqindilar 2- sinf - yuqori zaxarli chiqindilar 3- sinf -o'rtacha havfli chiqindilar ' 4- sinf -kuchsiz zaharli chiqindilar	tonna tonna tonna tonna turli xil

Qishloq xo'jalik sohasida foydalaniladigan tuproqlarning kimyoviy ifloslanish kategoriyalari

<i>Tuproqparni ifloslanish kategoriyalari</i>	<i>Ifloslanish tavsifi</i>	<i>Foydalanish holati</i>	<i>Tavsiya etilgan tadbirlar</i>
I kategoriya ifloslanmagan	Tuproq tarkibida kimyoviy moddalar QQMko'rsat-kichidan oshmaydi.	Barcha ekinlarni ekish mumkin	Tuproq ifloslanishiga bo'lgan ta'sirini kamaytirish.
II kategoriya o'rtacha havfli	Kimyoviy moddalar miqdori QQM ko'rsatkichigacha, umumiy sanitar meyor holatida bo'lib,tuproqqa yetib kelishi suv va havo orqali kechadi.	Sifat tarkibini nazorat kilgan holda ayrim o'simliklarni ekish mumkin.	Suv va havo orqali tarqaluvchi yo'llarni nazorat qilish va chegaralarshsh, qishloq xo'jalik foydalaniladigan yerlardagi suv manbalarini nazoratga olish
III kategoriya yuqori havfli	Tuproq tarkibida kimyoviy moddalar miqdori KQM dan ortik va translakatsion ko'rsatkichlarga zararli xisoblanadi.	Faqat texnika ekinlari ekishda foydalanish mumkin. Qishloq xo'jalik ekinlari ekish taqiqlanadi.	1. Qat'iy ravishda I kategoriya tadbirlarini qo'llash va zaxarli moddalar miqdorini o'simliklar mahsulotlar tarkibini nazoratga olish. 2. Hosil beruvchi o'simliklarni toza tuproq sharoitiga ko'chirish nazorat qilish.Z. O'simliklar y massalaridan foydalanishni cheklash.
IV kategoriya o'ta havfli	Tuproq tarkibida kimyoviy moddalar KQMdanortadi va tuproqning barcha ko'rsatkichlari uchun zararli hisoblanadi.	Barcha turdagi ekinlar ekish taqiqlanadi.	Ifloslangan tuproq qoplamini ifloslanish darajasini kamaytirish tadbirlar qo'llash. Qishloq xo'jaligida foydalanuvchi suv tarkibini nazoratga olish va tabiiy himoya omillarini shakllantirish

Tuproqni kimyoviy ifloslanish darajalarini tasniflashda barcha kimyoviy ifloslanish turlarida bir xil belgilanmaydi, balki muayyan ifloslovchi moddaning kimyoviy tarkibi, tuproqdagi miqdori, QQM, zaharli xususiyati va boshqa xususiyatlariga ko'ra aloxida-alohida tarzda belgilanadi. Biroq umumiy formula sifatida kimyoviy ifloslangan tuproqlar uchun quyidagi ifloslanish darajalari va koeffitsiyentlar qabul qilingan (5-jadval).

5-jadval

Kimyoviy ifloslangan tuproqlarning ifloslanish darajalari va koeffitsiyentlari

<i>Ifloslanish darajasi</i>	<i>Yerning ifloslanganlik darajasi</i>	<i>Ifloslanish koeffitsiyenta</i>
1	Ifloslanmagan	0
2	Kuchsiz	0,3
3	O'rt	0,6

4	Kuchli	1,5
5	Judakuchli	2,0

Tuproqlarni kimyoviy ifloslanishini muhofaza qilish bugungi kunda yer kurrasida eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi, shu bois bu masalaga jiddiy yondashishni talab etiladi. Chunki bu insoniyatning barcha turmush faoliyati bilan uzviy bog'liqsir. Yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida ayrim element va moddalar uchun tegishli ifloslanish darajalari keltiriladi (6-jadval).

Dunyo olimlari (SL.Davidova, V.I.Tagasov, 2002 y.) tomonidan turli kimyoviy modsalarning havflilik nuqtai nazaridan stress -indeks ko'rsatkichlari belgilangan, bunga ko'ra pestitsidlar - 140, og'ir metallar - 135, AES chiqindilari - 120, qattiq shakldagi zaharli chiqindilar - 120, metallurgiya materiallari - 90, tozalanmagan oqava suvlar - 85, oltingugurt (II) - oksidi - 72, neft -72, kimyoviy o'g'itlar - 63, organik maishiy chiqindilar - 48, azot oksidlari - 42, saqlanayotgan radioaktiv chiqindilar - 40, shahar chiqindilari - 40, uchuvchan uglevodorodlar - 18, uglerod oksidi - 12 indeks ko'rsatkichlari bilan belgilangan.

I (jadval Lyrim kimyoviy modda va elementlarning ifloblanish darajasi

Elementlar va moddalar

Ifloslanish darajalari, mshforiga ko'ra (mg/kg),

1 darajali, ifloslaimagan

2 darajali, kuchsiz

3 darajali, o'rta

4 darajali, I yuqori

5 darajali, juda yuqori

Bir so'z bilan aytganda tuproq qogshamini kimyoviy moddalar bilan ifloslanishini oldini olish muhimroq. Aks holda tuproq va boshqa tabiiy komponentlar bilan bog'liq muammolar vujudga kelaveradi. Ifloslanishning har qanday turi va darajasi tuproq xossalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shu nuqtai nazardan muammoning kelib chiqish mexanyumlari va muhofaza qilishning ilmiy asoslarini yaratish muhim hisoblanadi.

Har qanday siyosat kabi, ekologik siyosat ham aniq va ravshandir. U obyektning bilib olinganlik darajasi davlat rivojining ichki va tashqi shart-sharotlari bunday siyosatni amalgam oshirish uchun jamiyat ega bo'lgan moddiy imkoniyatlar bilan izoxlanadi.

Mamlakatning hozirgi ekologik holati muayyan darajada avvalgi tuzumning dastlabki yillarida faol o'tkazilgan tabiatni muxofazalash siyosatining natijasidir. 1925 yilda tabiatni muxofaza qilish bo'pyicha davlat komissiyalari tuzilgan edi.

Biroq 30 yillarning boshlarida tabiatni muxofazalash yo'lidan chekinish ro'y bera boshladi. Tabiatni o'zgartirish g'oyasi ustun tus oladiki bu amalda tabiiy jarayonlarning jiddiy ravishda buzulishiga olib keldi. Inson va tabiatning o'zaro ta'siri munosabatlari muammosiga ilmiy yondashishiga urinish, sanoat va qishloq xo'jaligini intensive rivojlantirish afzalligidan kelib chiqqan ma'muriy qarorlarga to'qnash keldi.

Ekologik siyosati quyidagi bosqichlarga bo'linadi.

1. Birinchi bosqich vaqt e'tibori bilan taxminan o'tish davriga to'g'ri keladi. U davlatning mamlakatda tabiatdan foydalanishning tashkiliy va ijtimoiy iqtisodiy shakllarini tartibga solishga qaratilgan faol qonunchilik faoliyati bilan tavsiflanadi. .

2. Ekologik siyosayni ikkinchi bosqichi taxminan 30 yillarning o'rtalarida boshlanadi. U tabiatdan foydalanishni tartibga solishdagi sustkashlikdan, tabiatni o'zgartirishning ulkan miqyosli faol ishlariga o'tish bilan tavsiflanadi. 3-10 yillikdan ko'proq vaqtни o'z ichiga oladi.

Bu tamoyil ko'p jihatdan adabiyot, san'at ommaviy axborot vositalari ta'sirida kuchaya bordi. Tabiiy jarayonlar o'ziga xos xususiyatlari boisidan bunday hatti harakatlarnin goqibati

darhol ko`zga tashlanmadi, lekin bir necha o`n yillardan keyin sezilib qoldi.

Tabiat foydalanish muammolariga davlat organlari e`tibori susayib ketdi.

Tabiatdan foydalanish jabhasida muammolariga davlat organlari, keyingi yillarda yanada murakkablashdi, sababi xalq xo`jaligini g`oyat katta mablag` sarflashga to`g`ri keldi.

3. Ekologik siyosatning uchinchi bosqichi 1967 yildan 1986 yillarva hozirgi kunlarimizgacha bo`lgan davrni o`z ichiga oladi.

Bu davr davlatning qonun chiqaruvchanlik faoliyati kuchayishi tabiatni muhofaza qilish sohasiga mablag` ajratish faollashtirish tabiatdan foydalanishni boshqarishning markazlashgan tizimi shakllanishi bilan tavsiflanadi. Bu yillar davomida tabiatdan foydalanishga oid munosabatlarni tartibga soluvchi 70 ta umumdavlat xujjatlari qabul qilindi.

Shu bilan birga 70-80 yillar boshlarida ekologik siyosatni amalgam oshirish nomuigaginabo`ldi, u ko`pgina jihatdan mamlakatdagi turg`unli holati bilan "tepadan" nazorat yetarli bo`lmaganligiga va "quyida" aniq manfaatdorlik yo`qligi bilan bog`liq edi.

Tabiatdan foydalanish va atrof muhitni muhofaza qilishning zarur ilmiy konsepsion va ekologik jarayonlar o`z vaqtida ishlab chiqilmadi. Bu esa ruy berishi mumkin bo`lgan salbiy ekologik oqibatlarni asosli ravishda bahslash borasida loyihalarni tayyorlash va ekspertiza qilishga tog`onoq bo`ldi.

Salbiy iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar mamlakatdagi ekologik vaziyatga salbiy ta`sir etmay qolmadi, ahvol butunlay keskin tus oldi. Tabiatdan foydalanishga idoraviy munosabat, tabiiy boyliklarni isroflikcha sarflashga, bir qator mintaqalarda tabiiy muhitning talay darajada ifloslanishi va izdan chiqishiga olib keldi. Buning ustiga korxonalarning odamlar sanoati va tabiatga yetkazgan zararlari, ularning xo`jalik faoliyatini baholashga hech qanday ta`sir o`tkazmasligi odatiy tusga kirdi.

Faqat 1988 yilning yanvaridagina "mamlakatdagi tabiatni muhofaza qilish ishini tubdan qayta ko`rish to`g`risida" qaror qabul qilindi.

Unda ekologik muammolarni hal etish, strategiyasi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi tub o`zgarishlarning tarkibiy qismi sifatida izohlab berildi.

Ekologik qayta tiklashning mohiyati-bu buyuk ishlab chiqarish tizimiga o`tishdirki, unda bir texnologik jarayonning chiqitlari boshqasining hom ashyosi bo`ladi.

Shubhasiz, ekologik qayta tiklash uzoqqa cho`ziladigan, qadamba-qadam qilinadigan ishdir. Istiqbolli ishlab chiqarish tizimining hammasi ulkan buuyuk-texnologik sekilasosida ishlaydigan bo`ladi. Bu ekologik siyosatning yangi sohasidar.

Ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarni boshqarish sohasida zamonaviy ekologik siyosatning vazifasi yangi xo`jalik mexanizmining qismi sifatida tabiatdan oqilona foydalanishning iqtisodiy mexanizmini shakllantirishdan iborat bo`lishi kerak. Odamlar ongini fikrlash tarsi va hatti-harakatlarini maqsadga muvofiq ravishda qayta ko`rish talab qilinadi. Bu tabiiy muhitni saqlash muammolari ustida jon kuydiradigan yangi tipdagi hodimni shakllantirish natijasida ro`y beradi.

Adabiyotlar:

1 Gerasimov I P *ekalogicheskie problem' v prrshloy nostoyashiy ibudushey geografii mir* M Nauka 1985

2 Izrael' Yu A *ekalogiya ikontrol sostoyaniya prirodnoy sred' M Gidrameteozdat* 1984

3 Manitoring *prirodnoy Srediu v bassejne Aral'kogo morya* L Gidrometedizdat 1991

4 Tuxtaev A Xamidov A *ekalogiya asoslari va tabiatni muxafoza kilish* Toshkent Ukituvchi 1992

5 ChYYernova N M Biulova E M *ekalogiya M Proveshenie* 1989

6 egamberdiev R *ekalogiya Toshkent Uzbekiston* 1994

7 Novikovu G A *Osnova obshey ekalogiya ioxrana prirodiu* LGU 1979

8 Alimov T L Rafikov AA *ekalogiya xatolik saboklari* T 1991

9 Shodimetov Yu *Ijtimoiy ekalogiyaga kirish* T 1991

10 Mil'kov FN Landshaftnoya Sreda zemli M 1970

11. www.ziyounet.uz

1. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr busagasida xavsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.T.Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. T. O'qituvchi. 1983 y.
2. Egamberdiyev R. Ekologiya. T. 1993 y.
3. Ergashev A. Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muxofaza qilish. Toshkent "yangi asr avlodi" 2005 y.
4. To'xtaev A. Ekologiya. T., "O`qituvchi" 1998 y.
5. Usmonov M.B., Rustamboev M.X., Xolmuminov J.T. va boshk. Ekologiya xukuki. T.: "Uzbekiston yozuvchilar uyushmasi" 2001 y.